

# Tashqi savdo

(dastlabki ma'lumot)


2018 yil yanvar-may

Respublikada tashqi savdo aylanmasi 2018 yil yanvar-may oylarida 14,7 mlrd. AQSh dollarini, shu jumladan eksport 6,5 mlrd. AQSh dollarini va import 8,2 mlrd. AQSh dollarini tashkil qildi. Tashqi savdo aylanmasi saldosini minus 1,7 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi.

Eksport tarkibida energiya manbaalari va neft mahsulotlari o'tgan yilning shu davriga nisbatan 64,3 %ga o'shishi tabiiy gazning 1,8 martaga oshgani hisobiga to'g'ri kelmoqda. Kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar esa 2,6 %ga o'sdi, shundan plastmassa va plastmassa buyumlarining eksporti 18,5 %ga oshdi.

Meva-sabzavot mahsulotlari eksportining o'tgan yilning shu davriga nisbatan 73,8 %ga o'sishi oziq-ovqat mahsulotlari eksporti hajmining 60,9 %ga o'sishiga olib keldi.


## Eksport tarkibi, foizda



# Tashqi savdo

Import tarkibida asosiy ulush mashina va asbob-uskunalar (umumiy import hajmida 33,7 %) va kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (11,5 %) hisobiga tog'ri kelmoqda.


## Import tarkibi, foizda



## Xizmatlar eksporti



*Eksport tarkibining umumiy hajmidan 29,8 %ni xizmatlar tashkil qiladi, bunda transport xizmatlari 10,4 %ni va safarlar 17,6 %ni tashkil qiladi.*



# Tashqi savdo


2018 yil yanvar-may oylarida tashqi savdo aylanmasi saldosini minus 1731,8 mln. AQSh dollari tashkil qildi, shundan MDH davlatlari bilan minus 887,6 mln. AQSh dollari va boshqa davlatlar bilan minus 844,2 mln. AQSh dollari tashkil etdi.

	mln. AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan foizda	umumiy hajmga nisbatan foizda
<b>Eksport</b>	<b>6479,0</b>	<b>129,0</b>	<b>100,0</b>
paxta tolasi	158,5	62,1	2,5
oziq-ovqat mahsulotlari	414,6	160,9	6,4
kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	383,9	102,6	5,9
energiya manbaalari va neft mahsulotlari	939,4	164,3	14,5
qora va rangli metallar	341,5	101,8	5,3
mashina va asbob-uskunalar	92,1	81,9	1,4
xizmatlar	1933,1	148,0	29,8
boshqalar	2215,9	122,4	34,2
<b>Import</b>	<b>8210,8</b>	<b>163,8</b>	<b>100,0</b>
oziq-ovqat mahsulotlari	708,1	121,8	8,6
kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	940,9	105,9	11,5
energiya manbaalari va neft mahsulotlari	403,8	144,1	4,9
qora va rangli metallar	664,5	131,6	8,1
mashina va asbob-uskunalar	2769,5	150,6	33,7
xizmatlar	1986,1	605,0	24,2
boshqalar	737,9	124,9	9,0

# Tashqi savdo

2018 yil yanvar-may oyida respublika tashqi savdo aylanmasida eng katta ulushga ega bo'lgan mamlakatlar, % da


## Tashqi savdo aylanmasi




MDH davlatlari orasida Rossiya, Qozog'iston, Belarus, Ukraina, Qirg'iziston va Tojikiston davlatlari tashqi savdo aylanmasida asosiy hamkorlar hisoblanib, ularning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 27,5 % ni tashkil qildi, boshqa davlatlar orasida Xitoy, Turkiya, Koreya Respublikasi, Afg'oniston, Germaniya, Latviya, Eron, Fransiya davlatlari hisoblanib, ularning ulushi 32,1 % ni tashkil qilmoqda.

Jami eksport-import hajmida eng katta ulushga ega bo'lgan mamlakatlar, foizda

## Eksport



## Import




# Tashqi savdo

Meva-sabzavot mahsulotlari eksport xajmi 305,4 mln. AQSh dollarini tashkil qildi, yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 73,8 % ga oshdi. Meva-sabzavot mahsulotlari eksport hajmida 40,6 % ni meva va rezavorlar (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,2 martaga o'sdi), 49,0 %ni sabzavotlar (58,9 %ga), 7,5 % ni uzum (0,4 %ga kamaydi) tashkil qiladi.



Meva-sabzavot mahsulotlari eksportida asosiy hamkor davlatlar Qozog'iston (umumiy hajmdan 47.4,4 % ), Rossiya (13,4 %), Afg'oniston (7,7 %), Qirg'iziston (7,3%), Xitoy (4,7 %), Vetnam (4,4 %), Turkiya (3,0 %), Pokiston (2,0 %) va Eron (1,3 %) hisoblanadi.

***Meva-sabzavot mahsulotlari eksportida yirik hamkor davlatlarning ulushi, foizda***



■ Qozog'iston

■ Rossiya Federatsiyasi

■ Afg'oniston

■ Vetnam

■ Xitoy

■ Turkiya

■ Qirg'iziston

■ Pokiston

■ Eron

■ Boshqa davlatlar

# Tashqi savdo

**2018 yil yanvar-may oylari yakuni bo'yicha meva-sabzavot mahsulotlari eksporti xajmi umumiy eksport xajmida 4,7 %ni tashkil qiladi.**



## Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

Meva-sabzavot mahsulotlari eksportining fizik hajmi 434,5 ming tonnani tashkil qildi, yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 88,7 %ga oshdi. Jami meva-sabzavot mahsulotlari eksportining fizik hajmida 59,4 ming tonnani meva va rezavorlar (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 39,4 %ga o'sdi), 338,9 ming tonnani sabzavotlar (2,2 martaga), 25,5 ming tonnani uzum (16,0 %ga kamaydi), 9,9 ming tonnani yer yong'oq (5,5 martaga), 772,2 tonnani yangi uzilgan qovun va tarvuz (11,4 martaga) tashkil qildi.

# Tashqi savdo

## To'qimachilik mahsulotlari eksporti



	mln. AQSh dollari	umumiy hajmga nisbatan %da	o'tgan yilga nisbatan %da
<b>To'qimachilik mahsulotlari</b>	<b>536,5</b>	<b>100,0</b>	<b>115,3</b>
shu jumladan:			
paxtadan yigirilgan ip	314,2	58,6	123,3
tayyor to'qima matolar va tikuvchilik kiyimlari	116,6	21,7	99,7
paxtadan gazlamalar	24,7	4,6	108,8
naqshli mato	27,4	5,1	111,4
gilamlar	11,7	2,2	112,5
boshqa tayyor to'qima- chilik mahsulotlari	15,5	2,9	122,0
ipak	14	2,6	160,9
paxta, paypoq va mato bo'lmagan materiallar, arqon mahsulotlari	8,9	1,7	76,1
boshqa tovarlar	3,5	0,6	120,7

**2018 yil yanvar-may  
oylari yakuni  
bo'yicha  
to'qimachilik  
mahsulotlari eksporti  
umumiy eksport  
xajmida 8,3 %ni  
tashkil qildi.**

**To'qimachilik  
mahsulotlari eksport  
xajmi 536,5 mln.  
AQSh dollarini  
tashkil qildi yoki  
o'tgan yilning shu  
davriga nisbatan  
15,3 foizga oshdi.**



**Davlat statistika qo'mitasi  
Tashqi iqtisodiy faoliyat  
va savdo statistikasi  
boshqarmasi**

Nashr uchun mas'ul:

**Bo'lim boshlig'i  
Sh.Gafurov**

(71) 230-80-44

